

To'lov-kontrakt (Ikki tomonlama) asosida mutaxassis tayyorlashga

KONTRAKT № BK612569100

Surxondaryo viloyati

2025-10-27

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-iyundagi "Davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-279-son qarori, Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish, talabalar o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida" 2017-yil 20-iyundagi 393-son qarori, Termiz iqtisodiyot va servis universitetining nizomi hamda 21.11.2022-yilda tasdiqlangan bakalavriat talabalarini o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi nizomiga muvofiq, **Termiz iqtisodiyot va servis universiteti** (keyingi o'rinlarda "Ta'lim muassasasi") nomidan rektor (direktor) **Absamatov Anvar Ergashevich** bir tomondan, **51209056330011 – TUXTAMURODOV ILYOSBEK ISMOIL O'G'LI** (keyingi o'rinlarda "Ta'lim oluvchi") ikkinchi tomondan, birgalikda "Tomonlar" deb ataladigan shaxslar mazkur kontraktni quyidagicha tuzdilar:

I. KONTRAKT PREDMETI

1.1. Ta'lim muassasasi ta'lim xizmatini ko'rsatishni, Ta'lim oluvchi o'qish uchun belgilangan to'lovni o'z vaqtida amalga oshirishni va tasdiqlangan o'quv reja bo'yicha darslarga to'liq qatnashish va ta'lim olishni o'z zimmlariga oladi. Ta'lim oluvchining ta'lim ma'lumotlari quyidagicha:

Ta'lim bosqichi: **Bakalavr**
Ta'lim shakli: **Sirtqi**
O'qish muddati: **5 yil 2029**
O'quv kursi: **2-kurs**
Ta'lim yo'nalishi: **60410100 - Iqtisodiyot**

1.2. "Ta'lim muassasasi"ga o'qishga qabul qilingan "Ta'lim oluvchi"lar O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va davlat ta'lim standartlarga muvofiq ishlab chiqilgan o'quv rejalar va fan dasturlari asosida ta'lim oladilar.

II. TA'LIM XIZMATINI KO'RSATISH NARXI, TO'LASH MUDDATI VA TARTIBI

2.1. 2025-2026-o'quv yili uchun ushbu kontrakt bo'yicha ta'lim oluvchining bir yillik o'qitish uchun to'lov **13,000,000.00 (o'n uch million)** so'mni (**Stipendiyasiz**) tashkil etadi va quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi:

· talabalikka tavsiya etilgan abituriyentlar uchun umumiy kontrakt miqdorini eng kamida **50** foizini **01.10.2025** gacha yoki ta'lim muassasasi rahbariyati belgilagan muddatgacha. Ikkinchi va undan yuqori bosqich talabalar uchun **50** foizini **01.10.2025** gacha belgilangan to'lov miqdorining qolgan qismini **100** foizini **01.04.2026** gacha.

2.2. "Ta'lim oluvchi" tomonidan shartnoma to'lovini to'lashda shartnomaning tartib raqami va sanasi, familiyasi, ismi va sharifi hamda o'quv kursi to'lov topshiriqnomasida to'liq ko'rsatiladi.

2.3. Talabalikka tavsiya etilgan va belgilangan muddatda bir yillik kontrakt to'lovining 50 foizidan kam bo'lmagan miqdorini to'lagan abituriyentlar 5 (besh) ish kuni ichida universitetga talab etilgan hujjatlarni taqdim etganidan keyin talabalikka qabul qilish buyrug'i rasmiylashtiriladi.

2.4. "Ta'lim oluvchi" tegishli fanlar bo'yicha akademik qarzdorlikni qayta topshirish sharti bilan keyingi kurs (semestr)ga o'tkazilgan taqdirda, keyingi semestr uchun shartnoma to'lovi talaba tomonidan akademik qarzdorlik topshirilgunga qadar amalga oshiriladi.

2.5. Odob axloq va ichki tartib qoidalariga rioya qilmaganligi (bir semestr davomida 74 soat dars qoldirganligi) sababli talabalar safidan chiqarilgan "Ta'lim oluvchi" tomonidan to'langan kontrakt to'lovi qaytarilmaydi.

2.6. Boshqa oliy ta'lim tashkilotidan, jumladan xorijiy oliy ta'lim tashkilotidan o'qishini ko'chirish uchun murojaat qilgan hamda ta'lim muassasasiga o'qishga qabul qilingan "Ta'lim oluvchi"ning soxta

hujjatlardan foydalanganligi yoki o'qishni ko'chirish bilan bog'liq hujjatlarida yolg'on va haqqoniy bo'lmagan ma'lumotlar mavjudligi aniqlansa, "Ta'lim oluvchi" "Ta'lim muassasasi" talabalari safidan chiqariladi, bunda "Ta'lim oluvchi" tomonidan to'langan kontrakt to'lovi qaytarilmaydi.

2.7. To'lov kontraktini amalga oshirgan va birinchi kursga talabalikka tavsiya etilgan "Ta'lim oluvchi" o'z xohishiga ko'ra o'qishni rad etgan taqdirda to'langan yillik kontrakt to'lovining ellik foizi hamda "Ta'lim oluvchi" ga sarflangan harajatlari "Ta'lim muassasasi" hisobiga ushlab qolinadi.

2.8. "Ta'lim oluvchi" o'z xohishiga ko'ra o'qishni rad etish bo'yicha qilgan murojaati asosida talabalar safidan chetlashtirilganida yillik kontrakt to'lovining ellik foizi "Ta'lim muassasasi" harajatlari hisobiga ushlab qolinadi. Shuningdek, talabaning ta'lim olish bilan bog'liq harajatlari (o'quv kunlari) alohida inobatga olinadi va undiriladi.

III. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

3.1. Ta'lim muassasasi majburiyatlari:

- O'qitish uchun belgilangan to'lovni o'z vaqtida amalga oshirgandan so'ng, "Ta'lim oluvchi"ni buyruq asosida talabalikka qabul qilish.

- Ta'lim oluvchiga o'qishi uchun O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Ta'lim muassasasi" Ustavida nazarda tutilgan zarur shart-sharoitlarga muvofiq sharoitlarni yaratib berish.

- Ta'lim oluvchining huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari hamda ta'lim muassasasi Ustaviga muvofiq professor-o'qituvchilar tomonidan o'zlarining funksional vazifalarini to'laqonli bajarishini ta'minlash.

- Ta'lim oluvchini tahsil olayotgan ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi) bo'yicha tasdiqlangan o'quv rejasi va dasturlariga muvofiq davlat ta'lim standarti talablari darajasida tayyorlash.

- O'quv yili boshlanishida ta'lim oluvchini yangi o'quv yili uchun belgilangan to'lov miqdori to'g'risida o'quv jarayoni boshlanishidan oldin xabardor qilish.

- Respublikada belgilangan Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori yoki tariflar o'zgarishi natijasida o'qitish uchun belgilangan to'lov miqdori o'zgargan taqdirda ta'lim oluvchiga ta'limning qolgan muddati uchun to'lov miqdori haqida xabar berish.

3.2. Ta'lim oluvchining majburiyatlari:

- Kontraktning 2.1. bandida belgilangan to'lov summasini shu bandda ko'rsatilgan muddatlarda to'lab borish.

- Talabalikka tavsiya etilgan abituriyentlar shartnoma to'lovini 50 foizini to'lagandan so'ng 5(besh) ish kuni ichida talab qilingan hujjatlar (rektor nomiga ariza, diplom (ilovasi bilan) yoki attestat, pasport nusxasi, fotosuratlar)ni "Ta'lim muassasasi"ga topshirish;

- Respublikada belgilangan Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori yoki tariflar o'zgarishi natijasida o'qitish uchun belgilangan to'lov miqdori o'zgargan taqdirda, o'qishning qolgan muddati uchun ta'lim muassasasiga haq to'lash bo'yicha bir oy muddat ichida kontraktga qo'shimcha bitim rasmiylashtirish va to'lov farqini to'lash.

- Ta'lim oluvchi o'qitish uchun belgilangan to'lov miqdorini to'laganlik to'g'risidagi bank tasdiqnomasi va kontraktning bir nusxasini o'z vaqtida hujjatlarni rasmiylashtirish uchun ta'lim muassasasiga topshirish.

- Tahsil olayotgan ta'lim yo'nalishining (mutaxassisligining) tegishli malaka tavsifnomasiga muvofiq kelajakda mustaqil faoliyat yuritishga zarur bo'lgan barcha bilimlarni egallash, dars va mashg'ulotlarga to'liq qatnashish.

- Ta'lim muassasasi va talabalar turar joyining ichki nizomlariga, ichki tartib va Odob ahloq qoidalariga qat'iy rioya qilish, professor-o'qituvchilar va xodimlarga hurmat bilan qarash, "Ta'lim muassasasi" obro'siga putur yetkazadigan harakatlar qilmaslik, moddiy bazasini asrash, ziyon keltirmaslik, ziyon keltirganda o'rini qoplash.

IV. TOMONLARNING HUQUQLARI

4.1. Ta'lim muassasasi huquqlari:

- O‘quv jarayonini mustaqil ravishda amalga oshirish, “Ta’lim oluvchi”ning oraliq va yakuniy nazoratlarni topshirish, qayta topshirish tartibi hamda vaqtlarini belgilash.
- O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, “Ta’lim muassasasi” nizomi hamda mahalliy normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq “Ta’lim oluvchi”ga rag‘batlantiruvchi yoki intizomiy choralarni qo‘llash.
- Agar “Ta’lim oluvchi” o‘quv yili semestrlarida yakuniy nazoratlarni topshirish, qayta topshirish natijalariga ko‘ra akademik qarzдор bo‘lib qolsa uni kursdan-kursga qoldirish huquqiga ega.
- “Ta’lim muassasasi” “Ta’lim oluvchi”ning qobiliyati, darslarga sababsiz qatnashmaslik, intizomni buzish, “Ta’lim muassasasi”ning ichki tartib va Odob ahloq qoidalariga amal qilmaganda, respublikaning normativ-huquqiy hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa sabablarga ko‘ra hamda o‘qitish uchun belgilangan to‘lov o‘z vaqtida amalga oshirilmaganda “Ta’lim oluvchi”ni talabalar safidan chetlashtirish huquqiga ega.
- “Ta’lim oluvchi” shartnomada ko‘rsatilgan tartib va miqdorda to‘lovlarni amalga oshirmaganda “Ta’lim oluvchi” ni barcha imtihon (oraliq va yakuniy) jarayonlarga qo‘ymaslik huquqiga ega.
- - shartnoma to‘lovi muddatlarini uzaytirish huquqi (OTM rektorining buyrug‘i orqali).

4.2. Ta’lim oluvchining huquqlari:

- O‘quv yili uchun kontrakt summasini semestrlarga yoki choraklarga bo‘lmasdan bir yo‘la to‘liqligicha to‘lash mumkin.
- Ta’lim oluvchi mazkur kontrakt bo‘yicha naqd pul, bank plastik kartasi, bankdagi omonat hisob raqami orqali, ish joyidan arizasiga asosan oylik maoshini o‘tkazishi yoki banklardan ta’lim krediti olish orqali to‘lovni amalga oshirishi mumkin.
- Professor-o‘qituvchilarning o‘z funksional vazifalarini bajarishidan yoki ta’lim muassasasidagi shart-sharoitlardan norozi bo‘lgan taqdirda ta’lim muassasasi rahbariyatiga yozma shaklda murojaat qilish.

V. KONTRAKTNING AMAL QILISH MUDDATI, UNGA O'ZGARTIRISH VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH HAMDA BEKOR QILISH TARTIB

- 5.1. Ushbu kontrakt ikki tomonlama imzolanganidan so‘ng kuchga kiradi hamda ta’lim xizmatlarini taqdim etish o‘quv yili tugagunga qadar amalda bo‘ladi.
- 5.2. Ushbu kontrakt shartlariga ikkala tomon kelishuviga asosan tuzatish, o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi mumkin.
- 5.3. Kontraktga tuzatish, o‘zgartirish va qo‘shimchalar faqat yozma ravishda “Kontraktga qo‘shimcha bitim” tarzida kiritiladi va imzolanadi.
- 5.4. Kontrakt quyidagi hollarda bekor qilinishi mumkin:
 - Tomonlarning o‘zaro kelishuviga binoan.
 - “Ta’lim oluvchi” talabalar safidan chetlashtirilganda “Ta’lim muassasasi” tashabbusi bilan bir tomonlama bekor qilinishi mumkin.
 - Tomonlardan biri o‘z majburiyatlarini bajarmaganda yoki lozim darajada bajarmaganda.
- 5.5. “Ta’lim oluvchi” tomonidan shartnoma to‘lovi mazkur shartnomaning 2.1-bandida belgilangan muddatlarda to‘lanmaganda “Ta’lim muassasasi” “Ta’lim oluvchi”ni ogohlantirmasdan talabalar safidan chiqarishga yoki kursdan-kursga qoldirishga haqli.
- 5.6. Uzrli sabablar bilan, “Ta’lim oluvchi”ning tashabbusiga ko‘ra.
- 5.7. Ta’lim muassasasi tugatilganda, ta’lim oluvchi bilan o‘zaro qayta hisob-kitob qilinadi.

VI. YAKUNIY QOIDALAR VA NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

- 6.1. Ushbu kontraktni bajarish jarayonida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan nizo va ziddiyatlar tomonlar o‘rtasida muzokaralar olib borish yo‘li bilan hal etiladi.
- 6.2. Muzokaralar olib borish yo‘li bilan nizoni hal etish imkoniyati bo‘lmagan taqdirda, tomonlar nizolarni hal etish uchun amaldagi qonunchilikka muvofiq fuqarolik sudiga murojaat etishlari mumkin.
- 6.3. “Ta’lim muassasasi” axborotlar va xabarnomalarni internetdagi veb-saytida, axborot tizimida yoki e‘lonlar taxtasida e‘lon joylashtirish orqali xabar berishi mumkin.
- 6.4. Kontrakt 2 (ikki) nusxada, tomonlarning har biri uchun bir nusxadan tuzildi va ikkala nusxa ham bir xil

huquqiy kuchga ega.

6.5. Ushbu kontraktga qo'shimcha bitim kiritilgan taqdirda ushbu barcha kiritilgan qo'shimcha bitimlar kontraktning ajralmas qismi hisoblanadi.

VII. TOMONLARNING REKVIZITLARI VA IMZOLARI

7.1. Talim muassasasi:

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Pochta manzili:

Manzil: Surxondaryo viloyati

E-mail: university@tues.uz

Tel.: +998 (55) 452-77-77

Bank rekvizitlari:

Bank nomi: Toshkent sh. "O'zsanoatqurilishbanki" ATB bosh ofisi

H/R: 20208000805568092001

SIR: 309861576

MFO: 00440

Bank nomi: AJ «Asakabank» Termiz shahar filiali

H/R: 20208000405568092005

SIR: 309861576

MFO: 00873

Bank nomi: Ipoteka bank OTP group Surxondaryo viloyati filiali

H/R: 20208000405568092003

SIR: 309861576

MFO: 00356

Ta'lim muassasasi rahbari: _____

Absamatov Anvar Ergashevich

7.2. Ta'lim oluvchi:

FISH.: 51209056330011 –

TUXTAMURODOV ILYOSBEK

ISMOIL O'G'LI

Yashash manzili: SURXONDARYO

VILOYATI, UZUN TUMANI,

Pasport ma'lumotlari: AD1091529

Telefon: 998337091976

Ta'lim oluvchining imzosi:



Diqqat: Tijorat banklari orqali to'lov amalga oshirilganda To'lov maqsadi quyidagicha bo'lishi talab etiladi

Talaba TUXTAMURODOV ILYOSBEK ISMOIL O'G'Lining JSHSHIR:51209056330011 2025-10-27 yildagi BK612569100 sonli shartnomasiga asosan kontrakt to'lovi uchun

Kontrakt to'lovini xazna ilovasi orqali to'lang

